INTRALINGVAL LAKUNALARNI YUZAGA KELTIRUVCHI LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK OMILLAR

Shaymardanova Aziza Raimjanovna

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada lakuna tushunchasi, uning tasnifi hamda muloqotda lakunarlikning namoyon bo‘lishi, lakunalarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Lakunarlik, muqobilsiz leksika, muloqot, tushunchaning ifodalanishi, bo‘shliqlar, neologizm, ekzotizm, illogizm, logoepistema (varvarizm).

Y.A.Sorokin va I.Y.Markovina: “Qabul qiluvchining o‘zi uchun g‘alati bo‘lgan chet el madaniy matnida tushunarsiz hamma narsa talqin qilishni talab qiladi, matn yaratilgan madaniyatning milliy o‘ziga xos elementlari mavjudligining belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday elementlarni lakuna deb ataladi” [1; 37] deb hisoblaydilar.

Intralingval yondashuv nuqtai nazaridan o‘zbek tilidagi lakuna matnning boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ifodaning yo‘qligida ham ko‘rinadi. Ular, o‘z navbatida, madaniyatlararo kommunikatsiyada biror bir konseptning ko‘rinishiga aylanadi. Tarjimadagi ushbu fragment muallifning fon bilimlari va mantiqiy xulosalari asosida kompensatsiyalash va to‘ldirish orqali tiklanadi.

So‘zning shakllanishidan oldingi jarayon, ertami-kechmi so‘zga aylanadigan tushunchalar, ya’ni bizning e’tiborimizda bo‘lgan, aslida mavjud, ammo hech qanday lug‘at bilan belgilanmagan lingvistik bo‘shliqlar, albatta qiziqarli jarayondir. Ayni paytda, zamonaviy tilning lug‘atida sodir bo‘layotgan eng sezilarli va shu bilan birga eng muhim jarayon bu uni yangi so‘zlar bilan to‘ldirish jarayonidir. Zero, “So‘nggi yillarda yangi so‘zlar muammosiga e’tibor kuchaydi, – deb yozadi V.G.Gak. Bugungi kunda ularni o‘rganish yanada jadallashdi. XX asrning g‘oyat yuksak “neogenligi”, turli til tadqiqotchilari yozgan neologik “portlash” leksikologiyaning maxsus tarmog‘i – neologiya, neologizmlar fanining yaratilishiga olib keldi”[2; 37].

Neologizmlarning shakllanishi, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga turtki beradigan sabablar, ko‘plab omillar mavjud. Masalan: xalq turmush tarziga kiradigan yangi mavzuni nomlashning zaruriyati borligi, fikrni aniq ifoda etish, aytaylik, asarlarda paydo bo‘ladigan murakkab tasvirni to‘liq ifodalaydigan so‘zni topish istagi, ehtiyojlar tufayli oldindan mavjud bo‘lgan yangi nomlarga davr o‘tishi bilan yangi tus berish, qayta tiklash zarurati shular jumlasidandir.

Ijtimoiy rivojlanish, ichki va tashqi aloqalar har qanday jamiyat hayotining muhim qismidir. Muloqot va axborot almashinuvi natijasida o‘zga tillardan g‘oyalar, tushunchalar, so‘zlar qarzga olinadi. Bu esa qo‘shimcha leksik belgilar, xorijiy o‘zlashma so‘zlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Leksik “qarzdorlik” zamon talabi, tilning muhim xususiyatlaridan biridir. Ushbu jarayonlarni O.K.Kazkenova, L.P.Krisin, E.V.Marinova, P.P.Abdina, N.N.Amosova, O.S.Axmanova kabi olimlar yaqindan o‘rgangan.

Ona tilimizga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ekzotizmlar nomi bilan yuritilib, o‘zga madaniyatga xos realiyalarni ifodalaydi. Ular “moda” tufayli og‘zaki yoki yozma amaliyotda qo‘llaniladigan, izohli lug‘atlarda qayd etilmagan va ma’nosi til hamjamiyatining ko‘plab vakillariga tanish bo‘lmagan so‘zlardir.

Ekzotizm (varvarizm)larning quyidagi belgi va xususiyatlari mavjud: a) chet tiliga xos so‘zni qabul qiluvchida tilda turli darajadagi assimilyatsiya, til me’yoriga amal qilmaslik holatining yuz berishi; b) ijtimoiy guruh doirasida qo‘llanilishi; v) o‘ziga xos “kolorit” yaratishga va boshqa madaniyat voqeliklarini bildirishga e’tibor qaratish; g) har doim qo‘llash uchun ehtiyoj yo‘qligi; d) chet tilini yaxshi biladiganlar nutqida uchrashi kabi. Nutqqa “jilo” berish maqsadida ekzotizmni matnga kiritish natijasida ko‘plab “qarzga olingan” so‘zlarning begonaligi payqalmaydi va farqlanmaydi. Ekzotizmlar shunchaki, notanish, qiyin talaffuz qilinadigan lisoniy birliklar bo‘lib ko‘rinadi. Bunday so‘zlarning leksik ma’nosi tarjima va tushunib anglashda ko‘pincha mos kelmaydi.

Ekzotik leksika ekstralingvistik omillar evaziga adabiy tilning lug‘atida mavjud, biroq uning nofaol qatlamidan o‘rin olgan so‘zlardir. Shunga qaramay, ekzotizmlardan ayrimlarining ma’nosi uzoq qo‘llanilish davriga ko‘ra umum tomonidan tushunarli bo‘lib qoladi [3; 266]. Mas., gipermarket, supermarket, multimarket, ayfon, smartfon, smartvoch, gadjet kabilar. Tushuncha ifodalashning usuli sifatida bunday so‘zlardan foydalanish nutqda tez-tez uchraydi va muayyan vaziyatlarda chet el so‘zlarining o‘zgarmas holatidan foydalanib (mas., lektor, volontyor, tyutor avatarka, anime, autsorting, layfxak, batler, onlayn, bloger, vebinar, kikstarter, koastering, kivorking, loukoster, agregator taksi, grumer, moshn dizayner, pikpoint, gadjet, karshering, keshbek, performans, slaumo, skrin/skrinshot, supervayzer, startap, tresh, feyk, feshenebelniy, fidbek, xedlayner, xolding, butik-otel, domen, messendjer, orbiting, tok-shou, top, trek, fleshmob, follover, xesh teg, chellendji, shoping, ekvayring kabi) tushuntirish nutqiy qulaylikka ham sabab bo‘ladi. Tilda bunday so‘zlarga teng lug‘aviy birliklarning yo‘qligi muqobilsiz so‘zlarning safini biroz kengaytiradi. Ular semantik jihatdan turg‘un bo‘lib, ayrimlarigina ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, neologizmga aylanishi mumkin.

Intralingval lakunalar leksemalarsiz sememalar hisoblansa-da, ularni ifodalagan sememalar tilning leksik-semantik tizimiga kiritilgan. Shu o‘rinda ichki lakunarlikka asos bo‘luvchi illogizmlarga to‘xtalish joizdir.

Illogizmlar – tilda leksema yoki sememalar orqali ifodalanmaydigan mental obrazlardir. Bunga G.V.Bikova quyidagi misolni keltiradi: “rus tilidagi go‘sht turini ifodalovchi говядина, баранина, ...kabilar ishlatiladi ammo “qushlar” leksik-semantik guruhida ularning go‘shtini bildiruvchi tushunchalarni ifodalash uchun leksema va sememalar yo‘q. Bu tushunchalar odamlar ongida aniq tasavvurga ega va tilda bu sememalarining shakllanmaganligi leksemalarning keraksiz deb qaralganligi, unga ehtiyojning yo‘qligidandir” [4; 103] – deydi. (G.V.Bikovaning nazariy qarashlariga to‘liq qo‘shilamiz, ammo uning go‘sht bilan bog‘liq misollari o‘zbek tili uchun xos emas. Chunki o‘zbek tilida kaklik go‘shti, bedana go‘shti, kurka go‘shti farqlanadi.) Illogizmlardan farqli, lakunalarda nomlanish bo‘lmasa-da yoki notanish bo‘lsa-da, tushuncha mavjuddir.

Logoepistema (grek. logos so‘z, nutq, fikr + epistéme – bilim, tushuncha: lingvomadaniy atama sifatida V.G.Kostomarov va N.D.Burvikova (1996) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan [6]) bir tilda so‘zlashuvchilar ijtimoiy va madaniy xotirasidagi voqelikni aks ettirishning lingvistik ifodasi bo‘lib, uning ortidagi muayyan ma’no, ba’zi bilimlar,

ma’lumotlar (ko‘pincha matn ko‘rinishida) orqali lakunalarni qoplash holati ham uchraydi:“Ana senga uchinchi jahon urushi” yoki “8 mart”, “Bu yog‘i loy jangiku”va boshq.

Bundan tashqari geteroantroponimlarning (u yoki bu jins ma’nosi aks ettirilgan kishi ismlari) ayrimlari qo‘llanganda ham lakuna yuzaga kelishi mumkin. Aytaylik, ham ayollar, ham erkaklar ismi bo‘la olgan nomlar qo‘llanilganda qaysi jins nazarda tutilganini farqlash qiyin bo‘ladi (masalan: Sayqal, Dilshod, Sayxan, Hayot, O‘lmas, Karomat, Hidoyat, Iqbol, Inoyat kabilar).

Lakunarlik hodisasi, ayniqsa, ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarni tuzishda ko‘p kuzatiladi. O‘z muqobiliga ega bo‘lmagan so‘z ikkinchi tilda izoh berish yoki mazmunan mos birikmalarni keltirish yo‘li bilan beriladi. Biroq ikki tilni qiyoslash bilangina lakunarlik hodisasini to‘liq o‘rganib, u yoki bu tilning lug‘at boyligi borasida to‘g‘ri xulosaga kelib bo‘lmaydi. Chunki muayyan tushunchaga nom berish tilga ta’sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog‘liq bo‘ladi [5; 11].

Lakuna – tasavvurning mevasi emas, balki tilda obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan birlik. Til tizimiga cheksiz sonli begona birliklarni aqliy ravishda kiritish va shu asosda undagi lakunalarni to‘ldirish mumkin emas. Zamonaviy o‘zgarishlar dinamikligi bo‘shliqlarning ommaviy ravishda paydo bo‘lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Опыт систематизации лингвистических и культурологических лакун. Методологические и методические аспекты // Лексические единицы и организация структуры литературного текста. Сб. науч. трудов. – Калинин, 1983. – С. 37.
2. Гак В.Г. О современной французской неологии //Новые слова и словари новых слов. – Л.: Наука, 1978. –С. 37.
3. Muxtorova, M. (2022). MOTHER AS A SYMBOL OF THE MOTHERLAND IN THE WORKS OF SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZI. Science and Innovation, 1(4), 302-305.
4. Muxtorova, M. (2022). SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY IJODIDA ONA–VATAN TIMSOLI. Science and innovation, 1(B4), 302-305.
5. Muxtorova, M. (2023). SHAFOAT TERMIZIY SHE’RLARIDA FOLKLOR ASOSIDAGI OBRAZLAR TALQINI. Models and methods in modern science, 2(12), 98-100.
6. qizi Muxtorova, M. S. (2023). SHOIR SHE’RIYATIDA FOLKLORIZM (Shafoat Termiziy ijodi misolida). Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 21-24.
7. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (Leksikologiya). O‘quv qo‘llanma. –T.: Firdavs-Shoh, 2021. – B. 266.
8. Оқбўтаев, Б. (2023). СЎФИЁНА АДОЛАТ3. Talqin va tadqiqotlar, 1(21).
9. Оқбўтаев, Б. Ҳ. (2023). ТАСАВВУФ ИЛМИ ВА НАЖМИДДИН КОМИЛОВ. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, 2(3), 90-96.
10. Быкова Г.В. Лакунарност в условиях одноязычной ситуации и межкультурном диалоге. – С.103.
11. Мирзаева, А. (2023). ИНДИВИДУАЛЬНО-АВТОРСКИЙ СТИЛЬ РИКА РИОРДАНА (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “PERCY JACKSON & THE OLYMPIANS: LIGHTNING THIEF”). Наука и инновация, 1(12), 125-129.

12. 12. Азиза, А. М. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 111-116.
13. 13. Мирзаева, А. (2023). ИЗУЧЕНИЕ ПОНЯТИЯ «ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ» В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 18-24.
14. 14. Shavkatovna, A. M. (2023). The History of Transtextuality and Theoritical Approach to Literary Analysis. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS, 2(2), 84-88.
15. 15. Shavkatovna, A. M. (2022). THE HISTORY OF TRANSTEXTUALITY AND THEORITICAL APPROACH TO LITERARY ANALYSIS. American Journal Of Philological Sciences, 2(11), 120-126.
16. Исматуллаева Н.Р. Хитой ва ўзбек тилларида лакуналарнинг воқеланиши: Фил.ф.б.ф.д (PhD) дисс. автореф. – Т., 2021. – Б.11
17. https://dic.academic.pro/searchall.php